

MUTOLAA MADANIYATI TUSHUNCHASI VA UNING SHAKLLANISHIDA ODATIY USLUBLARDAN FOYDALANISH

Nurmurodova Ozoda Zokirjon qizi

*O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada, mutolaa madaniyati tushunchasini turli tariflar, taxlilidan kelib chiqib, to‘liq tushuntirib berishga qaratilgan qiyosiy ma'lumotlar berilgan hamda mutolaa madaniyatining bugungi kun yoshlari hayotida qay darajada o‘rin tutishi va unda oilaning va maktab o‘qituvchilarining ta’sir doirasi nihoyatda muhim ekanligi yoritilgan, bundan tashqari mavjud muommolarga yechim berish maqsadida kichik loyiha ham keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: mutolaa, kitob, kitobxon, matn, loyiha, maktab, kutubxona.

Abstract: This article provides comparative information aimed at thoroughly explaining the concept of reading culture through various definitions and analyses. It also highlights the significance of reading culture in the lives of today's youth, emphasizing the crucial role of family and school teachers in shaping this culture. In addition, a small project is presented as a potential solution to existing problems.

Keywords: reading, book, reader, text, project, school, library.

Bugungi kunda mutolaa madaniyati tushunchasi va uning jamiyatimizdagi o‘rnii naqadar beqiyos ekanligi o‘z isbotini topmoqda. XXI asrdagi mutolaa resurslari va mutolaa jarayoni 17-, 18-, 19- asrlarga qaraganda juda ham katta tafovutga ega. Nimagaki, foydalanuvchilar oldingi davr kitobxonlariga qaraganda yangi asr avlodlari hamda qabul qilayotgan, eshitayotgan, ko‘rayotgan ma'lumotlarini turlicha analiz qiladi, o‘zlari uchun moslashtiradi va bu jarayonda ma'lum bir to‘siqlarga ham duch kelish ehtimoli yo‘q emas.

XXI asrda mutolaa madaniyati ta’lim standartlariga erishish, kelajagimizni ta’minalash uchun kuchli quroq sifatida ishlatalishi kerak. Chunki mutolaa madaniyati tushunchasi shu qadar keng tushunchaki, uni tushunib yetishimiz uchun bizni chegaralab qo‘ygan oddiy badiiy adabiyotlarni o‘qish jarayoni tushunchasini yorib o‘ta olishimiz kerak.

Mutolaa qilish bu ma'lumotlar oqimini to‘g‘ri boshqara olishdir. Odamlar qanchalar ko‘p o‘qish jarayonini boshdan kechirsa, ular shu qadar jamiyatdagi muommolarni anglay oladi va ularga yechim topish jarayonini tezlashtirib beradi. Mutolaa shunday jarayonki, siz uni ichiga kirib borganingiz sayin u sizni jamiyatning haqiqiy yuqori qatlamiga olib chiqib boraveradi. Bu borada davlatimiz raxbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev shunday deydi: “Kitob o‘qigan, o‘zini ustida ishlagan

odamda qanot bo‘ladi. U befarq bo‘lmaydi. Uning kuchi bilimida bo‘ladi. Shuning uchun hech kimni pisand qilmaydi. “Kattalar”ga xushomad qilmaydi. Uning bilimi bor, ilmi bor. Mana nima uchun kitob o‘qinglar deymiz. Kitob o‘qisangiz savol berishni bilasiz”.

Aynan mana shunday jarayonda kutubxonalar doimiy ravishda mana shunday oddiy tushunchalarni jamiyatga yetkazib berish va singdirish uchun xizmat qiladi, lekin ular aynan yuqori mutolaa madaniyati ega bo‘lgan jamiyatni tarbiyalashda asosiy ma’suliyatni bo‘yniga ola olmaydi. Biz kutubxonalarni bilim menejerlariga qiyoslashimiz mumkin, ular ma’lumotlarni doimiy ravishda himoya qiladi va foydalanuvchi va ma’lumot o‘rtasidagi tashkilotchi vazifasini bajaradi hamda shu orqali kuchli salohiyatga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashga o‘z hissasini qo‘shadi. Bu juda ham oddiy jarayon. Bundan tashqari, ko‘p kitob o‘qiydigan insonlar o‘zlarining mutaxassis bilimlari tufayli o‘z tengdoshlariga ko‘proq yetakchi sifatida namoyon bo‘ladi. Dunyo tajribasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, eng rivojlangan hududlarda asosiy sababchi sifatida ta’lim keltiriladi[1].

Kitob o‘qish har bir insonning boshqa koinotga bo‘lgan sehrli parvozidir. Siz kitob olib uni mutolaa qilish uchun hech qachon keksalik qilmaysiz, yoshlik qilmaysiz yoki yaxshi yoki yomon odamlar guruhiga ajratilmaysiz. Mutolaa nafaqat bolalar yoki juda aqli odamlar uchun balki o‘qishni istagan har bir kishi uchundir. Mutolaa qilish uchun xohlagan kutunxonagizga yoki kitob do‘koniga borishingiz mumkin va siz faqatgina o‘zizga mos kitobni tanlashigiz kerak va shu qadar qudratli kuch sizning qo‘lingizda paydo bo‘ladiki, agar uni to‘g‘ri boshqara olsangiz sizga tunganmas imkoniyatlar eshigini ochib bera oladi. Aniq ko‘rinib turibdiki siz mutolaa jaroyonisiz hech bir sirli kuch orqali ma’lumotlar xazinasiga egalik qila olmaysiz va aslida ham aynan mana shunday jarayonda siz tog‘ri mutolaa madaniyati jaroyoni bilan to‘qnashishingiz kerak bo‘ladi.

Bularaga esa aslida biz bugungi kunda e’tiborsizlik qilish orqali yuzaga kelib qolayotgan ba’zi muommolarining oddiygina yechimi bo‘lgan mutolaa madaniyatini rivojlantirish strategiyasi, bolalarni hayotining juda erta davridanoq kitobxonlik bilan tanishtirish, ularning sinflarida kutubxonalar tashkil etish va bolalarga o‘qishni o‘rgatadigan o‘qituvchilarni tayyorlash orqali erishishimiz mumkin[2].

Mutolaa qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida qisqacha ma’lumotga ega bo‘ldik, xo‘s shu o‘rinda o‘qish va mutolaa so‘zlarining tag ma’nolari nimda ekan?

O‘qish - bu bir qator yozma belgilarni ko‘rib chiqish va ulardan ma’no olish jarayoni va bu yozma matnni ko‘rib chiqadigan va yozma lingvistik xabardan ma’lumotlarni o‘zlashtira boshlangan aqliy jarayon. Mutolaa jarayoni kitobxon matn bilan o‘zaro aloqada o‘qishni tashkil qiladigan ijodiy jarayon sifatida ham qaraladi[3].

Bu kitobxon va matn o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonidir. Yana shunday tariflar keltiriladiki, mutolaa asosan jimgina yolg‘iz amalga oshiriladigan o‘ta shaxsiy faoliyatdir. Bu shuni anglatadiki, mutolaa ma’lumot olish faoliyati bilan bog’liq bo‘lib, u ovozsiz yoki ovoz chiqarib amalga oshiriladi. Mutolaa agar biz o‘qiyotganimizni tushunmasak, uni o‘rgana olmasligimiz yoki eslay olmasligimiz holatlarini ham o‘z ichiga oladi[4].

Bundan tashqari “Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat va tarqqiyot” kitobining muallifi bo’lgan Abdusalom Umarov shu kitobida mutolaa madaniyati haqida shunday fikr yuritadi: “Mutolaa madaniyati kishining manbani to‘laqonli tushunishi, undan estetik zavq olishi, muallif fikri va g‘oyasini anglashi, hamda uni baholay olish kabi xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Bundan tashqari kitobdan to‘g‘ri foydalanish, o‘zini qiziqtirgan manbalarni topa olish va undan o‘qishda, ishda hayotda foydalanish yo‘llarini o‘rgatadi. Kitobni tanlash, uni o‘qish jarayoni, saqlash, o‘qilgan kitoblarni boshqalarga tavsiya bera olish mutolaa madaniyatiga kiradi”[5]. Yuqorida sanab o‘tilgan hodisa va xususiyatlarning hech biri mutolaa bilan doimiy ravishda shug‘ullanib yuradigan kitobxonalar uchun sir emas. Sanab o‘tilgan tushunchalarning hammasi birlashgan holatda bir yaxlitlikni tashkil qilsagina to‘g‘ri mutolaa jarayoniga erishishimiz mumkin.

Mutolaaga kirib borish uchun ishni o‘zimizni qiziqtirayotgan kitobning sahifalarini varaqlashdan boshlaymiz va bu varaqlarning orasidan turfa xil dunyonи topishimiz mumkin va dunyo ichida bo‘layotdan dunyo ochalar ichidan biz dunyoyimiz uchun kerak bo‘ladigan tunganmas tajribalarni qo‘lga kiritishimiz mumkin.

Agar mutolaa madaniyatidan muntazam faoliyat sifatida foydalanilsa, muntazam va doimiy faoliyatga aylantirilsa u o‘z tasir sifatini bermay qolmaydi va shu orqali mutolaadan zavqlanish jarayonlari ham yuzaga keladi. Biz mutolaaga jamiyatimiz faqat ma’lum bir vazifa nuqtayi nazaridan emas balki organizm kerak bo‘ladigan muhim element kabi talab qiladigan darajaga ko‘tara olgan kunimiz jamiyatimiz kelajagi uchun aslo qayg‘urishimizga xojat qolmaydi[6].

Bugungi kunda jamiyatimizda shunday bir fikrlar paydo bo‘lib qolganki, mutolaa bu kitob bilan bog’liq jarayon va kitoblarning katta oqimi kutubxonalar va kutubxonalarda xizmat ko‘rsatadigan xodimlar yani kutubxonachilar bilan bog’liq va shu sababli ham kutubxonachilar bu jarayonda katta ta’sir ko‘rsatadigan jamiyat qatlamidir degan asoslanmagan fikrlarga ko‘p bora duch kelayapmiz.

Ammo shu o‘rinda muommoning ildizini topishga harakat qiladigan bo‘lsak, bu aslida qanday ko‘rinish oladi. Endgina muloqat qilishni o‘rganayotgan farzand, dastlabki kitobga bo’lgan munosabat va qarashlarini onasi tomonidan aytidayotgan ertaklar, topishmoqlar, maqollar, hikmatli so‘zlar va ba’zi keltirilgan hayotiy misollar orqali shakllantiradimi yoki hayotini zudlikda kutubxonalar bilan bog’laydimi? Bugungi kunda biz jamiyatda shunday holatlarga yetib qoldikki, ba’zi bolalar onasi

tomonidan aytilgan bir dona ertak, hattoki alla eshitmasdan ulg‘ayayabdi. Boshlanishi shunday oddiygina xatolardan shakllanayotgan bolaning kelgusi hayotida mutolaa jaroyoni uning hayotidan doimiy va chuqr o‘rin egallashiga kim kafolat bera oladi?

Bolalar hayotidagi keying bosqich bu bolalar bo‘g’chalaridir. Bilamizki, oldingi davrlarda bu turdagи institutlar hayotimizga keng yoyilmagan edi. Ammo, har birimiz farzandimiz, nabiramiz, singlimiz yoki ukamizning bog‘chadan kelib aytib bergen bir dona she’ri yoki ertagini eshitsak qanchalar ko‘nglimiz yorishadi. Demak, bu shundan dalolat beradiki mutolaa jarayonining qaysidir boshqichlari ularda shakllanib boshlamoqda. Lekin biz uni ilk bosqich deya olmaymiz.

Maktablar, ayniqsa maktablardagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari - bu yozilgan jumlalar o‘z qariga juda ham keng bo‘lgan ma’suliyatni tortadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ularning o‘quvchilari shu qadar kuchli hurmat va ishonch bilan qabul qiladiki, hattoki ularning har bir gapi ular uchun bir qonundek tuyuladi. Aslida ham agar maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘zi mutolaa madaniyati aslida nima ekanligini chuqr anglagan holda o‘z o‘quvchilarga shu jarayonni singdira olsa, qariib to‘rt yil mobaynida hali dunyoni yaxshi anglab yetmagan bolajonlarni tog‘ri mutolaa va hayot qolipiga solib qo‘yishni bemmalol uddalaydi. Bular bo‘lishi mumkin oddiygina sinf doirasida o‘tkaziladigan she’riy kechalar, ertak mutolaalari, maqollar taxlili, topishmoq aytish o‘yinlari va boshqalar. Aslida mutolaa va kitobxonlikka jalb qilinishning yo‘llari juda osongina va yechimini biz ananaga aylanib qolgan usullardan topishimiz mumkin.

Yuqorida biz ko‘rgan boshqichlar aslida unchalar murakkab emas ekan. Xo‘sish, nima uchun u o‘z samarasini bermayapti? Muommo nimada? Javobi juda oddiy. Bu jaroyonlar doimiy tashkil qilinmaydi yoki arzimagan sabablar tufayli ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi. Bir marta yoki bir necha marta qilingan ishlar o‘z samarasini bermaydi lekin doimiy qilingan ishlar albatta beradi.

Buni asoslashga harakat qilamiz. Deylik oddiygina she’r aytish, bo‘lishi mumkin qisqagina sakkiz qatorni yodlab kelish, juda oddiy narsa bo‘lib tuyiladi to‘g‘rimi? Lekin tasavvur qiling haftada besh kun dars bor va har kunlik uzog‘i 30 daqiqa vaqni shu jarayonga ajratilsa natijasi tasavvur ham qila olinmaydigan bo‘lishi mumkin. Birinchidan, ko‘p sh’er yodlash xotirani shunchalar mustahkam qiladiki, hattoki eng zo‘r xotira mashqlarining natijasi ham buning natijasi bilan tenglasha olmasligi mumkin. Ikkinchidan, yosh murg‘ak jonning hayotida kitob mutolaasi va kitobga bo‘lgan munosabat shu qadar mustahkam o‘rin egallaydiki, balki hayotini kitoblarsiz tasavvur qila olmaydigan darajaga ham yetib qolishi hech gap emas. Uchunchidan, bizga oddiy tuyuladigan she’rlar o‘z ichiga bir olam ma’no xazinarini qamrab oladi va bevosita bolaning ma’naviyatini shakllantirishga sababchi bo‘ladi.

Biz yuqorida oddiygina she'r yodlash jarayoni sifatida ko'rib o'tdik. Agar bunga jiddiyoq va asosli ravishda qarasak va boshqa metodlardan doimiy ravishda foydalansakgina, ana undan keyin biz sezilarli natijalarni qo'lga kiritishimiz mumkin.

Boshlang'ich sinfni tamomlagan o'quvchi keyin ongli ravishda maktab kutubxonalariga murojaat qila olishi mumkin, unda ham agar ularda kitoblarga yoki fanlarga nisbatan ozroq bo'lsa ham mehr oldinroq shakllantirilgan bo'lsa. Chunki kitobni va kitob o'qishni tushunmagan kitobxon vaqtini kutubxonada o'tkazishga oz bo'lsa ham ehtiyoj sezmaydi. Oltinga teng vaqtini esa, oddiygina ko'ringan lekin nihoyatda salbiy oqibatlarga olib kela oladigan internet o'yinlari, zamonaviy gadjetlar va hattoki ko'cha hayotiga sarflab yuborishi hech gap emas.

Shuncha jarayonlar va bosqichlarni ko'rib chiqdik. Hali ham hamma aybdorlik kutubxonalarda ekanmi yoki uning zamirida boshqa kichginkagina ko'ringan katta sabablar bor ekanmi? Xulosa o'zimizdan. Nimagaki, uzog'i 2 yoki 3 ta farzandiga kitob o'qib berishga vaqt topa olmagan, yoki oddiygina bir sinf bilan ishlashga qiynalayotgan butun boshli jamiyatni oddiygina kutubxonachilar jamoasi yetuk kitobxonlar qila olmaydi. Bu ko'rinish turgan fakt.

Muommolarning yechimini qidirganimiz sayin, uning tub ildizlarini o'rganishga harakat qilganimiz sari, yana ham kattaroq muommolarga duch kelaverishimiz mumkin. Shu sababli oldimizdagি muommolarga asta sekin yechim berish maqsadidaa xorijiy davlatlarda sinab ko'rilgan va hattoki o'z samarasini bergen ba'zi bir loyihamalar va tajribalarni biz ham moslashtirgan holatda o'z jamiyatimizga va kutubxonalarimiz faoliyatiga joriy qilsak, ma'lum bir yutuqlarga erishishimiz mumkin. Shu o'rinda juda ham oddiy tuzilishga ega bo'lgan va insonlardan katta mehnat, vaqt va chuqur say – harakat talab qilmaydigan bir loyiha haqida so'z yuritmoqchiman.

Nigeriya davlati haqida hammamiz eshitgan bo'lishimiz kerak va shu davlatning Port Xarkort universitetida sinovdan o'tkazilgan "Take 10 minutes to read and share" nomli loyihasi haqida ma'lumot berib o'taman. Bu loyihaning o'zbek tilidagi talqini "10 daqiqa o'qi va uni boshqalar bilan baxam ko'r" bo'lib, bu loyihaning ishtirokchilari universitet talabalari bo'lgan. Ularda ham bizdagi qatori oddiy bahonalar: "Mutolaa uchun vaqtim yo'q", "Juda ham bandman" hamda "Vaqtimni boshqa muhimroq narsalarga sarflashni xoxlayman" va boshqalar. Yuqoridagi holatlarning hammasi biz uchun tanish, shunday emasmi!

Demak, bu loyiha quyidagi tartibda amalga oshirilgan. Avvalo loyihamda ishtirok etishni xoxlagan talabalarni tanlab olishgan va ularning hammasini biz biladigan zamonaviy ijtimoiy tarmoqlarda bitta guruh sifatida birlashtirilgan. Ularning soni qariib 200 nafarni tashkil etgan va ular orasida kim qaysi janrdagi adabiyotlarni yoki aynan qaysi adabiyotni o'qishni xoxlashlarini aniqlash uchun so'rovnomal o'tkazilgan. Ma'lum bir adabiyot tanlab olingandan keyin o'rta tezlikda o'qishda 10 daqiqa vaqtini talab qiladigan qismi guruhlarga jo'natib borilgan. Bu jarayon bir oylik

marafon sifatida tashkillashtirilgan. Eng qiziq tarafi shundaki, har bir talabandan vazifani chin dildan ado etish so‘ralgan va agar bu jarayonda talaba marafonni davom ettirishni xoxlamasa, guruhni tark etish imkoniyati berilgan edi.

Bu marofoning yana bir sharti, har kuni o‘qilgan 10 daqiqalik parchani, marafonda ishtirok etmayotgan boshqa bir do‘sti yoki dugonasiga so‘zlab berishi aytilgandi. Bu loyihaning yakuniga kelib 200 nafar talabandan atigi 100 nafari oxirigacha yetib borgan va yana bir qiziq tarafi shundaki, ular bu jarayonni yana davom ettirilishini ham talab qilishgan edi.

Marafon yakunida kitobxonalar fikrlarini o‘rganib chiqilganda erishilgan natijalar kutilgandan ham a’lo bo‘lgandi. Talabalarning deyarli hammasi quyidagi fikrlarni bayon etishgan:” Biz bu loyihani oddiygina qabul qildik va ishtirok etishga qaror qilgan vaqtimizda juda ham jiddiy o‘ylab ko‘rmadik va shunchaki 10 daqqa boshqa keraksiz narsalarga ham ketib qolishi mumkinku degan o‘y-hayollar bilan rozilik berdik. Natijasi esa biz kutmagan darajada hayratlanarli bo‘ldi. Biz insoniylik tuyg‘ularini o‘rgana boshlagandik hamda notiqlik san’atining ilk debochalariga qadam qo‘yayotgan edik. Biz shuni tushundikki, mutolaa bu insoniylikdan uzoqlashib ketishga qarshilik qilib turuvchi devor ekan.”

Talabalarning yuqorida bildirgan fikrlaridan kelib chiqib atigi 10 daqiqalik mutolaaning ta’sir kuchi qanchalik darajada bo‘lishini isbotini ko‘rdik. Endi savol tug‘iladi, 10 daqqa juda katta vaqt emas yoki juda katta ma’lumotlar xazinasini egallab olishga imkon bermaydikuu? Nima uchun bu talabalar mammuniyat bilan gapirmoqda?”. Javobi juda ham oddiy: “Hamma narsa oz miqdorda qilinsa ham lekin doimiy bo‘lsa albatta o‘z natijasini bermasdan qo‘ymaydi. Balki aynan mana shunday oddiy tajribalarni maktablarimizda o‘qituvchilarimiz raxbarligida tashkil qilinsa, yil 365 kun davomida muntazam amalga oshirilsa, oddiy harakatlarimiz ulkan natijalarga yetaklashi mumkin. Shunchaki to‘g‘ri manbani tanlab olish, to‘g‘ri nazorat va davomiyligini saqlab turilsa kifoya.

Mutolaa madaniyati — bu nafaqat kitob o‘qish jarayoni, balki insonning tafakkurini, ma’naviy olamini va jamiyatdagi o‘rnini shakllantiruvchi kuchli vositadir. Bugungi kunda bu madaniyatning ta’siri tobora ortib borayotgan bo‘lsa-da, uning rivoji uchun har bir bosqich — oila, bog‘cha, maktab, kutubxona va butun jamiyat birgalikda harakat qilishi muhimdir. Ayniqsa, maktabgacha va maktab davridagi tarbiya hamda o‘qituvchilarning roli bu borada beqiyosdir.

Maqlolada qayd etilganidek, mutolaaga bo‘lgan qiziqishni erta yoshda shakllantirish, oddiy usullarni doimiy tarzda qo‘llash, tajriba asosida sinovdan o‘tgan loyihalarni joriy etish orqali katta ijtimoiy natijalarga erishish mumkin. Misol tariqasida keltirilgan Nigeriyadagi “10 daqqa o‘qi va boshqalar bilan bo‘lish” loyihasi, mutolaaning doimiylik va ixlos bilan amalga oshirilganda inson hayotiga qanday kuchli ta’sir ko‘rsatishini yaqqol ko‘rsatadi.

Eng asosiysi, biz mutolaani majburiyat emas, balki ehtiyoj sifatida qabul qilsak, bu madaniyat jamiyatimizning ajralmas qismiga aylanishi, barkamol avlod tarbiyasida asosiy tayanch bo‘lishi mumkin. Har birimiz bu jarayonning faol ishtirokchisiga aylansak, mutolaa orqali ijtimoiy ong va ma’naviyatni yuksaltirish yo‘lida muhim qadamlarga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Ailaku, U.V. Librarians' promotion of reading culture and student's responsiveness in selected secondary schools in Lagos State, Nigeria / U.V. Ailaku, V.E. Unegbu // Ebonyi Journal of Library and Information Science, 2017. - № 4(1). – P. 30-42.
2. Amarteifio, G. Establishment of readers clubs in Basic schools / G. Amarteifio // Retrieved from, 2015. - web.aflia.net
3. Ariffin, R. Definition of reading / R. Ariffin // Retrieved from, 1992. - <https://www.ukessays.com> 20/04/19
4. Hall, L.A. The role of reading abilities in students' discussions about texts and comprehension strategies / L.A. Hall // Journal of Literacy Research, 2012. Retrieved from. - The Role of Reading...<https://journals.sagepub.com>
5. Умаров, А. Мутолаа маданияти: шахс, жамият, тараққиёт / А. Умаров // Тошкент: Узбекистон Республий Фанлар академияси "Фан" нашриёти, 2004. В. 32-33.
6. Brian, T. The discipline of Reading / T. Brian // . – 2018. <https://www.earlytorise.com>